

## Skarlet Hayotiga Chizgilar

*Adilova Fanuza Shodiyor qizi<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” asari va uning qahramoni, yuksak xarakter sohibasi Skarlet haqida soʻz boradi. Yozuvchi bir vaqtning oʻzida otashin sevgi hikoyasini va tarixning badiiy tasvirini yarat olganligi, fuqarolar urushi davri inson ruhiyati, qayta qurish yillari kechinmalari, hayoti silliq, bir maromda ketayotgan bir paytda taqdir chizgilari uni boshqalar uchun ham kuchli boʻlishga majbur qilganligi bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Tara, fuqarolar urushi, Shimol, Janub, Skarlet.

Ishtiyok va samimiyatga yoʻgʻrilgan, ichdan shunday idrok bilan yoritilgan, tarixiy materiallar asnosida toʻqima obrazlar bilan boyitilgan, tasavvur bilan chegaralangan Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” asari dunyo adabiyotida urush davri ijtimoiy-siyosiy hayotining keng doirasi va murakkabligini tasvirlay olgani bilan Tolstoyning “Urush va tinchlik” asariga yaqin turadi. Yozuvchi bir vaqtning oʻzida otashin sevgi hikoyasini va tarixning badiiy tasvirini yarata oldi. Asarda fuqarolar urushi birinchi marta ayol nigohi bilan koʻrilgani va tasvirlangani, bu romanga yangilik va hissiy tasirchanlik bagʻishlagan. Gap shundaki, bir paytlar Shimolni Janub bilan urushga undagan jangari abolitsionizm ruhi yarim yoʻlda qurib qoldi: negrlarning qulligi bekor qilindi, lekin diskriminatsiya, irqchilik saqlanib qoldi. Bugina emas negrlar Janubdan Shimolga koʻchib oʻtgan sayin irqchilik milliy miqyosda yanada keskinroq muammoga aylandi. Bekor qilish anʼanasidan voz kechish odobsizlik edi, lekin uni hukmron sinflar nuqtai nazaridan ham eslashga oʻrin yoʻq edi. Bu borada asarning muvaffaqiyati muallifning Shimol bilan toʻgʻri, taʼbir joiz boʻlsa, “Kelishuv formulasi” ni topa olganidir. Bu ayni paytda mavzuning ulkan dramatic salohiyatini roʻyobga chiqarishga imkon berdi.

Dahshatli urushning tarixiy voqealari Skarletning taqdiriga eng koʻp taʼsir qildi. Axir u shunday ogʻir damlarda oʻzi juda yaxshi koʻrgan, nima boʻlishidan qatʼi nazar juda qadrlaydigan va himoya qilgan Tarani qutqarishga muvaffaq boʻldi. Axir bu uning bolalik xotiralaridan qolgan yagona narsa. U bu jasorat va “temir xislat”ni butun umr oʻz plantatsiyasini orzu qilgan va afsuski, qiziga mana shunday ogʻir damlarda yordam bera olmagan otasidan olgan.

Ayol xarakteri, latofati, irodasi butun chizgilarda mujassam qilgan Skarlet oʻzigacha va oʻzidan keyin yaratilgan barcha ayol obrazlardan kuchli va matonatli ekanligi bilan ajralib turuvchi fenomenal obraz. Asar nomi ham, badiiyligi ham, obrazlar ham jozibali. Kitobxon asarni oʻqish asnosida ushbu asarda qahramonlar bilan yashaydi ham. Hajman katta boʻlsa-da, asar oʻquvchini oʻzidan uzoqlashtirmaydi. Drayzerning Kerrisi, Floberning Bovarisi ham Skarletga oʻxshash taqdirga ega esalar-da, Skarlet ulardan farqli va umuman butun bir xarakter sohibasi. Chunki Skarlet nima qilmasin, oʻzini emas atrofidagi hammani, hatto qora tanli qullarni, qizil tuproq, kindik qoni toʻkilgan paxtazor plantatsiyalarga ega Tarani ham oʻylaydi. Hayoti silliq, bir maromda ketayotgan bir paytda taqdir chizgilari uni boshqalar uchun ham kuchli boʻlishga majbur qiladi. Qoʻshma Shtatlarda boshlangan janub va shimol oʻrtasidagi fuqarolar urushi va undan keying qayta qurish davridagi butun hayot mujassam asarda.

Skarlet xayolida shunday insonni gavdalanitiradiki, uni xuddi kiyimdek Eshliga kiydiradi. Eshliga nisbatan oʻzida iliq tuygʻu borligini his etadi. Aslida uni emas, xayolida Eshli deb oʻylagan idealini sevishini Melli oʻlayotganda anglab yetadi. Skarletning “sevgi”si oldidagi toʻsiqlar olib tashlanganida, umuman muhabbat yoʻqligi maʼlum boʻldi.

Skarlet boshiga kelgan har qanday musibat uchun qattiq kuyunmaydi, aksincha, bu haqida keyinroq oʻylab koʻrishni oʻziga maʼqul deb hisoblaydi. Eshli Melani bilan turmush qurishini eshitganda, unga jahl qilib Charlzga tegishga rozilik beradi. Ammo uning turmushi uzoq davom etmay, oʻn yetti yoshida beva qoladi. Undan bir oʻgʻil koʻrib, hayotning unga hozirlagan qiyinchilig-u sinovlariga qarshi chiqadi. Atlantaga borib, Frenk bilan ikkinchi bor turmush quradi. Bu nikoh bilan vayronaga aylanib ulgurayozgan Tarani saqlab qolishni, yaqinlari urushdan keyin och-nahor oʻlib ketmasliklari uchun pul topishni koʻzlaydi. Frenk Kennedi bilan yashab, Skarlet ancha oʻzini oʻnglab oladi. Ularning birgalikdagi hayotlari uzoqqa choʻzilmaydi. Frenk ku-kluks-klan aʼzosi boʻlganligi uchun erkin negrlar lagerida otishma chogʻida vafot etadi.

Skarlet bu baxtsizlikni ham ruhan, ham jismonan qabul qiladi. Rett Batlarga turmushga chiqib, oʻzi xohlagan shohona hayot tarziga erishadi. Skarlet Rett bilan Bonni ismli qiz koʻradi. Umri davomida u och-nahor qolishdan va Eshlini yoʻqotishdan qoʻrqib yashaydi, qachonki qizi Bonni oʻlganida bularning barchasi arzimastligini tushunib yetadi.

Skarlet Oʻxara xarakterining inkor etib boʻlmaydigan fazilatlaridan biri – bu uning moslashuvchanligi, yashash va yashash istagidir. Magʻlubiyatni qabul qilishni istamaslik, bosim va oʻz maqsadlariga erishish vasvasasi Skarletni Folkner qahramonlari bilan bogʻlaydi. Skarletga xos boʻlgan “...ortga qarama” slik Amerika oʻziga xosligini aks ettiradi. Feniks qushiga oʻxshash narsa, hayotga muhabbat, qayta tugʻilish va har qanday yiqilishdan keyin koʻtarilish qobiliyati – bu amerikaliklar haqiqatdan ham oʻzlariniki deb hisoblaydigan xususiyatlar va bularning barchasi aynan Skarletda

1

mujassamlashgan. Uning shaxsiy fojiasi shundaki, tashqi ko‘rinishidan jozibali bo‘lishiga qaramay, unda ayollarga xos bo‘lgan his-tuyg‘ularning nozikligi, boshqa odamni tushunish qobiliyati, xushmuomalalik, boshqalarning his-tuyg‘ulariga hurmat, rahm-shafqat tushunchalari yetarlicha emas edi. Melani esa shunday xislatlarga edi. Rett Batler ham bunday tuyg‘u va fazilatlarini haqiqiy xonimning atributlari deb hisoblaydi.

Margaret Mitchell urushgacha bo‘lgan ruhiyatni ham tasvirlaydi. Romanda kishilarning yaqinlashib kelayotgan urushga munosabatini Rett va Charlz misolida ko‘rishimiz mumkin. Charlz katta ishtiyoq va jang qilish istagi bilan Skarletga gapiradi, Rett esa nafrat bilan buni inkor etadi.

“Shamollarda qolgan hislarim” asarining yuksakligi har biri yorqin, o‘ziga xos individuallik bilan ta’minlangan va ayni paytda har biri o‘ziga xos davr tarixiy mazmunini aks ettiruvchi unutilmas personajlar mavjudligida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Margaret M. Shamollarda qolgan hislarim. – T: “Pravo press nashriyoti, 2020.
2. Aleksandra R. Skarlet. – Toshkent: “Faylasuflar nashriyoti”, 2013.
3. [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz)
4. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)